

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 2-son

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR
TARIXI

- 6 **KARAХОДЖАЕВА ДИЛОРОМ
МАМИРОВНА**
А.И. Ишанов – выдающийся узбекский
ученый-государствовед

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 13 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**
Конституционализм и наука конституционного
права: некоторые задачи и перспективы
развития
- 24 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK
ALISHER O'G'LI**
QODIROVA DILDORA IRKINOVNA
Xorijiy investitsiya tushunchasining
nazariy-huquqiy jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 30 **XODJAYEV BAXSHILLO KAMOLOVICH**
Интеллектуал mulk huquqini boshqarish va
texnologiyalar transferini davlat tomonidan
qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy
masalalari
- 38 **XO'JAYEV SHOJAXON AKMALJON O'G'LI**
Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya
qilishning o'ziga xos jihatlari
- 49 **SAYDIVALIYEVA XURSHIDA
XODJIAKBAROVNA**
Xorijiy davlatlarda oilaviy munosabatlarni
tartibga solishning o'ziga xos jihatlari va
oilaviy-huquqiy shartnomalar

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI.
AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.
KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

12.00.09 – JINOYAT
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

61 **MURODJOHOVA MOHIRAHOH
MAKSUDJON KIZI**

ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА

Понятие международного договора
строительного подряда

70 **USMONOVA MUNISXON YO‘LDOSH QIZI**

Muomala layoqatidagi nuqsonlar va uni
aniqlashdagi muammolar

81 **ASADOV SHAHRIDDIN FAKHRIDDIN UGLI**

Legal regulation of consulting services

90 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**

O‘zbekistonda vodorod energetikasi sohasi
qonunchiligini takomillashtirishning ayrim
masalalari

97 **ХАЙИТОВ ПАНЖИ БУХАРОВИЧ**

Роль и значение объектов и субъектов
в энергетической безопасности

106 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**

Janubiy Afrika Respublikasi jinoyat
qonunchiligida jazoni yangillashtirish instituti

122 **UMARXONOV AZIXON
SHARIPXONOVICH**

Sud bosqichlarida jinoyat protsessi
ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash
asoslari

- 131 **ABDULLAYEV DIYOR IBODILLAYEVICH**
Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi tanlangan
shaxsga nisbatan o'rnatilishi mumkin bo'lgan
taqiq (cheklov)larning ilmiy-nazariy jihatlari
-

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 142 **ВАЛЕЕВ АРТУР МАХМУДОВИЧ**
Правовые инструменты защиты
иностранных инвестиций в соответствии
с положениями двухстороннего
инвестиционного договора: опыт
Республики Узбекистан
-

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.2./LQNZ3050>

UDC: 347.1(045)(575.1)

MUOMALA LAYOQATIDAGI NUQSONLAR VA UNI ANIQLASHDAGI MUAMMOLAR

Usmonova Munisxon Yo'ldosh qizi,Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrası katta o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0001-6487-918X
e-mail: muniskhonusmonova@gmail.com

Annotatsiya. *Shaxslarning muomala layoqatida nuqsoni bor yoki yo'qligini aniqlash tuzilayotgan bitim yoki shartnomalarning haqiqiy yoxud haqiqiy emasligi asosini tashkil etadi. Fuqarolik munosabatlari ishtirokchilarining iroda hamda intellektual holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ko'pligi shartnomaviy-huquqiy munosabatlarning adolat bilan kechmasligiga sabab bo'ladi. Iroda holatining buzilishi sababli insonlar o'z xatti-harakatlarini boshqara olmasliklariga, intellektual holatdagi o'zgarishlar esa harakatlarni ang'ay olmasliklariga olib keladi. Zamonaviy dunyoda muomala layoqatida nuqson keltirib chiqaruvchi vositalar ham turlicha bo'lib, ularning ba'zilari qonunchiligimizda tartibga solinmagan. Bitim tuzish paytida inson ruhiyatining qay holatda bo'lganligini aniqlashning texnologik usullarini qo'llash imkoniyatlari ushbu maqolada tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada inson ongiga ta'sir ko'rsatuvchi hamda muomala layoqatida nuqson paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi omillarga doir olimlarning turli qarashlari o'rganilgan bo'lib, muallif tomonidan kerakli fikr-mulohazalar ham keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *muomala layoqatida nuqsoni bor shaxs, iroda va intellektual holatning buzilishi, affekt, yuridik affekt, patologik affekt, kompleks psixologik-psixiatrik ekspertiza, elektron sigaret, chilim, patronaj.*

ДЕФЕКТЫ ДЕЕСПОСОБНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ ИХ ВЫЯВЛЕНИЯ

Усмонова Мунисхон Йулдош кизи,доктор философии по юридическим наукам (PhD),
старший преподаватель кафедры «Гражданское право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. *Установление наличия или отсутствия недостатка в способности лиц к ведению переговоров является основанием для действительности или недействительности заключаемых соглашений или договоров. Большое количество факторов, влияющих на волю и интеллектуальное состояние участников гражданских правоотношений, является причиной того, что договорно-правовые отношения протекают несправедливо. Вследствие нарушения состояния воли люди не могут управлять своим поведением, а изменения интеллектуального состояния приводят к невозможности осмысления действий. В современном мире существуют различные средства, вызывающие нарушение способности к совершению сделок, и некоторые из них не урегулированы в нашем законодательстве. В данной статье анализируются возможности использования технологических методов для определения состояния психики человека при заключении сделки. Также в статье были изучены различные взгляды ученых на факторы, влияющие на человеческое сознание и*

вызывающие появление дефекта способности с ним справиться, и автор дал необходимые заключения.

Ключевые слова: лицо с дефектами дееспособности, нарушение воли и интеллектуального состояния, аффект, правовой аффект, патологический аффект, комплексная психолого-психиатрическая экспертиза, электронная сигарета, кальян, патронаж, дарение и иное жилье на условиях договора пожизненного предоставления уступки.

DEFECTS IN TRANSACTION CAPACITY AND PROBLEMS IN ITS DETERMINATION

Usmonova Muniskhon Yuldosh kizi,

Senior Lecturer of the Department of Civil law,
Tashkent State University of Law,
PhD in Law

Abstract. Determining whether or not there is a defect in the capacity of the people to negotiate is the basis for determining the validity or invalidity of the agreements or contracts being concluded. The large number of factors affecting the will and intellectual state of the participants in civil relations is the reason that contractual and legal relations do not proceed with justice. Due to the violation of the state of the will, people cannot control their behavior, and changes in the intellectual state lead to the inability to understand the actions. In the modern world, there are various means that cause impairment of the ability to deal, and some of them are not regulated in our legislation. This article analyzes the possibilities of using technological methods to determine the state of the human psyche at the conclusion of a deal. Also, in the article, the different views of scientists on the factors that affect the human mind and cause the appearance of a defect in the ability to deal with them were studied, and the author gave the necessary opinions.

Keywords: person with a disability, violation of will and intellectual state, affect, legal affect, pathological affect, complex psychological and psychiatric expertise, electronic cigarette, cigarette, patronage, gift, and other housing under the condition of lifelong provision assignment contract.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Dunyoda ijtimoiy hayot va huquqni qo'llash amaliyotida muomala layoqatida nuqsoni bor shaxslarning huquqiy maqomi, huquq va manfaatlarining ta'minlanishi, ular tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. O'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan shaxslar tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish AQShda 2021-yilning o'zida fuqarolik ishlarining 12 foizini qamrab olgan bo'lsa, ushbu raqamlar Buyuk Britaniyada 13 foiz, Norvegiyada 6 foiz, Xitoyda 16 foizni tashkil etdi. Shu sababli muomala layoqatida nuqsoni bor shaxslarning huquqiy maqomini belgilash, ular tomonidan tuzilgan bitimlarning huquqiy oqibatlarini

aniqlashning ta'sirchan muqobil mexanizmlarini yaratish zarurati mavjud.

Jahonda muomala layoqatidagi nuqsoni bor shaxslarga nisbatan "hushyorlik rejimi" amalda bo'lib, fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi subyektlarning o'z harakati ahamiyatini tushunish yoxud tushuna olmasligi bilan bog'liq masalalar turli xil usullarda aniqlanadi. Jumladan, test sinovlari, raqamlar ketma-ketligini to'g'ri yoza olish va boshqa shunga o'xshash usullardan foydalanish borasida tadqiqot o'tkazishga katta e'tibor qaratilmoqda. Virtual olamda shaxsning muomala layoqatida nuqsoni bor yoki yo'qligini aniqlashga oid choralarni real makonda ham qo'llash yoxud sun'iy intellekt yordamida muomala layoqatini aniqlash bilan bog'liq tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda inson qadrini yuksaltirish eng ustuvor maqsad ekanligi ta'kidlangan yangi O'zbekistonning 2022–2026-yilga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham har bir shaxs erkin fuqarolik jamiyati tomonidan yaratilgan huquq va manfaatlardan foydalanishi kafolatlanganligi qayd etilgan. Shu maqsadda barcha shaxslarning ruhiyatida nuqsoni bor yoki yo'qligidan qat'i nazar, teng imkoniyatlar bilan ta'minlash, faktik muomalaga layoqatsiz shaxslarning huquqiy maqomini ishlab chiqish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish, ular tomonidan tuzilgan bitimlarning huquqiy oqibatini belgilash, bitim tuzish vaqtida muomala layoqatida nuqsoni bo'lgan shaxsning holati yuzasidan hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan "insofli tomon" huquqlarini himoya qilish, bitimni isloh qilish mexanizmini yaratish, virtual olamda shaxslarning muomala layoqatiga ega bo'lganligini aniqlashda oferentning javobgarligini belgilash ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatda ishtirok etayotgan shaxslar ruhiyatining holati muhim ahamiyatga ega. Sababi muomala layoqatida nuqsoni bor shaxs tomonidan tuzilgan bitimlar keyinchalik haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Jismoniy shaxslarning fuqarolik munosabatlarda normal ishtirokini ta'minlovchi mezonlardan biri – shaxsning o'z harakatlari ahamiyatini tushunish yoki ularni boshqara olish layoqatining mavjud bo'lmashligi, ushbu subyektning muomala layoqatida nuqson paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Bunda shaxsning muomala layoqatidagi nuqsoni va ruhiy holatini fuqaroviy-huquqiy baholash psixiatriya va psixologiya kabi fanlarning ilmiy ma'lumotlariga asoslanadi.

Bugungi kunda psixologiya va psixiatriya ilmida "ruhiy buzilish" atamasi bilan bir qatorda "ruhiy kasallik", "ruhiyatdagi nuqson (anamoliya)", "psixoz holati", "psixopologik nuqson", "inson psixikasining chegaraviy holati" kabi bir qator tushunchalar ifodalanadi va ushbu atamalar ruhiyatida

doimiy o'zgarish bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanadi [1, 54-b.].

Muomala layoqatidagi nuqsonlar va ularni vujudga keltiruvchi omillarni tahlil etishdan avval *muomala layoqatida nuqsoni bor shaxs* tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq: *Muomala layoqatida nuqsoni bor shaxs* deganda voyaga yetgan, to'liq muomala layoqatiga ega bo'lgan, sud tomonidan muomala layoqati cheklangan yoxud muomalaga layoqatsiz deb topilmagan, lekin ma'lum bir sabablarga ko'ra iroda va intellektual holatining buzilishi oqibatida vaqtincha o'z harakatlari ahamiyatini tushuna olmagan yoki ularni boshqara olmagan faktik muomalaga layoqatsiz shaxs tushuniladi. Demak, shaxsni muomala layoqatida nuqsoni bor deb hisoblashimiz uchun u voyaga yetgan bo'lishi, qonunan muomala layoqatiga ega bo'lishi, faktik muomalaga layoqatsiz bo'lsa-da, sud tomonidan muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilmagan bo'lishi lozim. Bunda muomala layoqatida nuqsonlarni ikkiga bo'lish mumkin: *intellektual holatdagi nuqson va iroda holatidagi nuqson*.

Voyaga yetgan shaxslar ruhiyatiga ma'lum bir omillar ta'sir ko'rsatishi oqibatida ruhiyat buzilishi sodir bo'ladi va natijada ular o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydi yoki ularni boshqarish qobiliyatini vaqtincha yo'qotadi. Ruhiy buzilish atamasini olimlar turlicha talqin etishadi [2]. Jumladan, N.N. Belokobilskiy va Y.Y. Komissarova shaxsning ong ostida buzilish yoki qandaydir og'ishlar (o'zgarishlar) bo'lganda o'z harakatlari boshqara olmaslik holatini ruhiy shikastlanish deb atashadi va aynan shu jihat bilan aqli raso insonlardan ajralib turishini ta'kidlashadi [3, 157]. D.V. Sitkovskiy esa ruhiy buzilishni nervopsixiatrik tolalarning keng doirada ishdan chiqishi deb hisoblaydi [4, 14]. G.V. Nazarenko, I.A. Semensova, A.V. Kislyakova, Jamie Walvisch [5], S. Woloshin, L.M. Schwartz, H.G. Welch kabi olimlar aynan ruhiy buzilish holatlarini jinoiy-huquqiy

nuqtayi nazardan tahlil qilgan va vaqtinchalik ruhiy buzilishlarni ruhiy kasallik sifatida qabul qilmaslik tarafdorlaridir. Biz ham ularning fikrini qo'llab-quvvatlaymiz. Chunki sog'lom va muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxslarning ruhiyatida ham vaqtinchalik buzilish bo'lish ehtimoli bor va bunday holatda ular ruhiy bemor hisoblanmaydi. Lekin vaqtinchalik ruhiy buzilish va vaqti-vaqti bilan takrorlanadigan surunkali ruhiy kasallik o'rtasidagi tafovutni farqlash lozim. Sababi qaytalanadigan, tez-tez takrorlanib turadigan ruhiy xastaliklar bugungi kundagi qonunchiligimizga ko'ra fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashgan muomala layoqatida nuqsoni bor shaxslarning ruhiy holati va ularning ruhiyatidagi buzilish esa rus olimlaridan ko'ra ko'proq Yevropa olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, J.C. Wakefield o'z tadqiqotida aynan muomala layoqatiga ega, lekin ichki yoki tashqi ta'sir natijasida ruhiy holatida o'zgarish bo'lgan shaxslar va ular tomonidan amalga oshirilgan xatti-harakatlar natijasi bilan tanishib chiqdi. Hatto bunday holatlar sirasiga gipnoz (tibbiyotga bog'liq emas) holatini ham kiritdi [6, 149-156]. Ammo S. Varga [7, 10], K.S. Kendler, K.A. Phillips, J.Z. Sadler, K.W.M. Fulton, D.J. Stein, D. Bolton [8, 1759] kabi tibbiyot olimlari gipnoz tashqi ta'sir bo'lib, ushbu holatda inson ongi ma'lum darajada ishlashi va harakatini idora qilishi mumkin, degan qarorga kelishdi. Bizning fikrimizcha, gipnozning muomala layoqatidagi nuqsonga aloqasi yo'q, sababi gipnoz ruhiyatning boshqa shaxslar ta'sirida aldov yo'li bilan vaqtincha tormozlab qo'yilishi hisoblanadi. Shuning uchun bunda gipnozlangan shaxs aldanган bo'ladi, desak to'g'riroq bo'ladi.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida huquqiy fanlarda ilmiy metodlar: tizimli-huquqiy tahlil, taqqoslash, qiyosiy huquqiy, induksiya va deduksi-

ya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llangan

Tadqiqot natijalari

To'la muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxslarning muomala layoqatidagi nuqsan paydo bo'lishi alohida holatlar bilan bog'liqdir. Jumladan, patologik mastlik; patologik uyqusirash holatlari; patologik affekt; "qisqa tutashuv" reaksiyasi [9, 686]. Ushbu tushunchalar inson ruhiyati buzilishining tibbiy mezonini tashkil etsa-da, huquq sohasida yuridik mezonlar bilan birga ko'rib chiqiladi. O'z navbatida, yuridik mezonlar quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi hamda muomala layoqatidagi nuqsanlar aynan ularning buzilishi natijasida kelib chiqadi:

- *Intellektual holat – o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olish;*

- *Iroda holati – o'z harakatlarini boshqara olish.*

Intellektual holatning buzilishi inson ongi bilan uzviy ravishda bog'liq, bunda shaxs o'z harakatlarining oqibatlarini ko'ra olmaslik, anglab yetmaslik kabi holatlarda bo'ladi. Intellektual holatning og'ishiga tibbiy mezonlar sabab bo'lib, misol tariqasida, patologik affekt, surunkali kasallik, qattiq isitma holati va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Shaxsning kuchli darajadagi ruhiy o'zgarishi affekt deyiladi. Affektlar ancha jadal kechuvchi hissiyot bo'lib, to'satdan paydo bo'ladi va qisqa muddat davom etadi. Affektning bir nechta turi bo'lib, shaxs butunlay o'z harakatini anglay olmaydigan holatda bo'lishi bevosita patologik affekt bilan bog'liqligi sababli affektning ushbu turi tadqiqotning bir qismi hisoblanadi.

Tibbiy izlanishlarga ko'ra, patologik affekt qahr, g'azab, ajablanish va hatto xursandchilik hislari natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. "Affektio" va "affektiv" atamaları sinonim bo'lib, Rim qonunlarida "iroda, niyat, moyillik" tushunchalarini bildirish uchun ishlatilgan [10]. Zamonaviy psixologiyada affekt holati kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida paydo bo'ladigan va qisqa muddat davom

etadigan ruhiy holat sifatida ifodalanadi [11]. Shuningdek, G.V. Morozova, O.F. Savina, A.A. Tkachenko tomonidan patologik affektga “Qisqa muddatli, tez va zo‘ravonlik bilan o‘tadigan hissiy portlovchi reaksiya”, deb ta‘rif berilgan [12]. Biroq Spinozaning asarlari va affektning tarixiy rivojlanishi borasida izlanish olib borgan A. Damasio patologik affekt faqatgina zo‘ravonlik bilan kechadi degan fikrga qarshi boradi va u qo‘rquv natijasida ham yuzaga kelishi mumkin degan fikrni bildiradi [13]. Bu fikr M. Gregg va G.J. Seigworthlar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlangan [14]. Shuningdek, S.T. Xapchayev patologik affekt umidsizlik, g‘azab, dahshat ta‘siri oqibatida ham paydo bo‘lishi mumkinligini aytgan bo‘lsa [15], A.V. Kolomina, L.K. Komarovalar bir necha daqiqa davom etadigan ushbu ruhiy holatda shaxsning irodasi, ongi, tasavvur qilish va fikrlash qobiliyati torayishini ta‘kidlashgan [16]. Alkogoliklar, epilepsiya kasalligiga chalinganlar, bosh miyada jarohati bo‘lganlar patologik affektga beriluvchan bo‘ladi [17, 432].

Demak, patologik affekt inson aqliy faoliyatining vaqtinchalik buzilishi bo‘lib, u onging chuqur buzilishi, ta‘sirning haddan tashqari yuqoriligi, odatdagi holatdan butunlay chiqib ketish tarzida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun patologik affekt holatida bo‘lgan inson muomala layoqatida nuqsoni bor shaxs sifatida tan olinadi, patologik affekt holatida bo‘lish muomala layoqatidagi nuqsonning vujudga kelganligi hisoblanadi.

Insonlarda turli his-tuyg‘ular mavjud bo‘lgani holda patologik affekt holati ham ana shu tuyg‘ularning qo‘zg‘alishi ta‘sirida yuzaga keladi. Bir so‘z bilan aytganda, affektning markaziy elementi hissiyotlardir [18, 35]. Biroq har qanday his-tuyg‘u ham yuridik affektlarni yuzaga keltirmaydi, ya‘ni fuqaroviy-huquqiy munosabatga ta‘sir etmaydi. Dastlab affektiv xatti-harakatlarning huquqiy oqibatlari aniqlanadi. Chunki har bir hissiy holatni qonuniy ahamiyatga ega deb bo‘lmaydi, shuning uchun ham har bir psixologik ta-

sirni qonuniy deb tan olish kerak emas. Masalan, shaxs patologik affekt holatida va hech qanday yuridik oqibat keltirib chiqaruvchi harakat sodir etmadi, bitim yoki shartnoma tuzmadi. Demak, bunda yuridik mezonlar mavjud bo‘lmaydi. Yuridik affektga xos bo‘lgan xususiyatlar quyidagilardan iborat: birinchidan, shaxsning huquqiy munosabatlar subyekti bo‘lish qobiliyatining pasayishi;

ikkinchidan, bu iroda erkinligi va subyektning xohish-irodasini ifoda etishni sezilarli darajada cheklashi;

uchinchidan, bu ma‘lum fuqaroviy-huquqiy oqibatlarning boshlanishiga, ro‘y berishiga olib kelishi hisoblanadi.

Demak, patologik affekt holatida fuqaroviy-huquqiy munosabatga kirishgan shaxsning huquqiy holatini yuridik affekt deb baholasak bo‘ladi. Sababi yuridik affekt o‘ziga xos aniq hissiy holat emas, balki aniq belgilangan talablarga javob beradigan, yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan hissiy holatlar majmuidir.

Yuqoridagi tahlillarga tayangan holda yuridik affektga quyidagicha ta‘rif berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. *Yuridik affekt – tashqi omilning huquqiy munosabatlar subyekti irodasi va ongiga ta‘sir etishi natijasida yuzaga keladigan hamda huquqiy oqibatlarga olib keladigan (huquqiy munosabatlarning paydo bo‘lishi, o‘zgarishi, bekor bo‘lishi) maxsus hissiy holat.*

Yuridik affekt subyekti tomonidan fuqaroviy-huquqiy munosabatga kirishilgandan so‘ng kelib chiqqan huquqiy oqibatlarni aniqlash uchun ekspertiza o‘tkazish katta ahamiyatga ega [19]. Sababi, affektning boshqa turlarida shaxs minimal darajadagi erkinlikka ega bo‘ladi va aqlini yo‘qotmaydi (fiziologik affekt). Sud jarayonida shaxs bitim tuzish yoki shartnoma imzolash paytida qanday ruhiy holatda bo‘lganligi, affektning mavjudligi yoki yo‘qligi haqidagi savolga javob bo‘lmaydi. Buni faqatgina sud-psixiatrik ekspertizasi aniqlashi mumkin. Odatda

fiziologik affektni aniqlash uchun psixologik ekspertiza, patologik affektni aniqlash uchun esa psixiatrik ekspertiza tayinlanadi. Lekin K. Marinelli affekt holati yuzasidan kompleks psixologik-psixiatrik ekspertiza tayinlangana, masala odilona hal etiladi, degan fikrni bildirgan [20, 465]. Biz ham uning fikriga qo'shilamiz. Chunki amaliyotga nazar tashlaydigan bo'lsak, sudlar tomonidan fuqaroning ruhiy holatini aniqlash maqsadida psixologik va psixiatrik ekspertizalarni tayinlash borasida chalkashliklarni ko'rishimiz mumkin. Buning natijasida shaxsning fuqaroviy-huquqiy munosabatga kirishgan vaqtidagi holatini aniqlashda noto'g'ri tashxis qo'yilayotganligi va aynan ushbu diagnoz bo'yicha ekspert xulosasi berilayotganligini ham qayd etishimiz lozim. Shuning uchun shaxsning bitim tuzish jarayonidagi intellektual va iroda holatini aniqlashda har ikki soha vakillari, ya'ni psixologlar ham, psixiatrlar ham ishtirok etishi zarur. Fikrimizcha, shundaygina sud qarorlari adolatli qabul qilinishi uchun barcha choralar ko'rilgan hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Shuningdek, affekt holatiga oid xususiyatlar tavsiflanayotganda fuqarolik huquqida affekt holatining jinoyat huquqidagi affekt bilan farqlovchi jihatlarni ham qayd etib o'tish lozim.

Jinoyat huquqida affekt ko'p hollarda tashqi hujum ta'sirida yuzaga keladi, fuqarolik huquqida esa affekt holati ichki hislar natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, jinoyat huquqida fiziologik affekt (minimal darajada bo'lsa-da, shaxs o'z harakatlarini boshqara oladi va nima qilayotganligining ahamiyatini tushunadi) holatiga ham alohida urg'u beriladi. Ya'ni fiziologik affekt ta'sirida ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan shaxslar huquqbuzar yoxud jinoyatchi sifatida e'tirof qilinsa-da, fiziologik affekt paydo bo'lishi oqibatida sodir etilgan qilmishga nisbatan yengillashtiruvchi holat sifatida qaralishi mumkin. Fuqarolik huquqida esa FK 121-moddasi bo'yicha faqatgina

patologik affekt o'rganiladi. Sababi bitimning huquqiy oqibatini anglab yetmaslik uning keyinchalik haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi hisoblanadi.

Bugungi kunda sud tomonidan tayinlangan ekspertiza yordamida shaxslarning bitim tuzish jarayonida o'z harakatlarining ahamiyatini tushunganligi yoki ularni boshqara olganligini aniqlash O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrda qabul qilingan 24-sonli "Fuqarolik ishlari bo'yicha ekspertiza tayinlash, o'tkazish va ekspert xulosasiga baho berishda sud amaliyotida kelib chiqadigan ayrim masalalar haqida"gi qarori bilan tartibga solinadi. Ushbu qarorning 6-bandi ikkinchi xatboshisida ish holatlari bo'yicha shaxsning ma'lum harakatni sodir etish vaqtidagi ruhiy holatini aniqlash lozim bo'lgan barcha hollarda sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlanishi lozimligi aytib o'tilgan. Lekin, bizning fikrimizcha, shaxsning ruhiy holatini to'liq aniqlash uchun o'tkazilishi kerak. Shuning uchun qarorning 6-bandi ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilishi maqsadga muvofiq: *ish holatlari bo'yicha shaxsning ma'lum harakatni sodir etish vaqtidagi ruhiy holatini aniqlash lozim bo'lgan barcha hollarda kompleks psixologik-psixiatrik ekspertiza tayinlanishi lozim, masalan, bitimni haqiqiy emas deb topish haqidagi ishlarni ko'rishda bitim tuzilgan vaqtda shaxs o'z harakatlarining ahamiyatini tushunmagan yoki ularni boshqara olmaganligini aniqlash (FK 121-modda).*

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, intellektual holatning buzilishi oqibatida shaxs amalga oshirayotgan harakatlarini anglamaydi va tushunmaydi. Iroda holatining buzilishi natijasida esa fuqaro o'z harakatlarini boshqarolmaydi, o'zini idora qilolmaydi, lekin oqibatini va bajarayotgan harakatining mohiyatini anglaydi. Ikkisi bir paytda va stabil holatda bo'lsa, ya'ni shaxs ruhiyati muntazam ravishda o'zgarib tursa, ushbu fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish uchun sudga murojaat qilish mumkin. Lekin intellektual va

iroda holatining buzilishi turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, jismoniy shaxs spirtli ichimlikni me'yoridan ortiq iste'mol qilishi natijasida yaqin do'stidan haq evaziga qarz olishi mumkin. Ushbu vaziyatda u qarz olayotganini tushunadi, lekin unga pul kerak bo'lganligi bois o'z harakatini idora qila olmay shartnomaviy-huquqiy munosabatga kirishadi va bunda shaxsning iroda holati buzilgan hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi ba'zi holatlarda o't qo'yish kasalligi (piramoniya), o'g'rilik kasalligi (kleptomaniya), shopogoliyada ham iroda holati buzilishi, lekin intellektual holat buzilmasligini ta'kidlaydi. Biroq bunday vaziyatlarda shaxslar to'liq javobgar bo'ladi, ya'ni u javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

Iroda holatining buzilishi asosan spirtli ichimliklar, turli xil giyohvand vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar va preparatlarni iste'mol qilish natijasida yuzaga keladi. Chunki sanab o'tilgan vositalar tarkibida mavjud bo'lgan modda va elementlar insonni sarxush qiladi, natijada shaxs qilayotgan harakatlari qanday oqibatlariga olib kelishiga ko'zi yetsa-da, ushbu harakatlarni amalga oshiradi.

Tarkibida etil spirti bo'lgan ichimlik alkogol yoki spirtli ichimliklar deb nomlanadi. Etil spirti insonni sarmast qilish xususiyatiga ega bo'lib, uning miqdoriga qarab spirtli ichimliklar turlicha bo'ladi. Ularning tarkibidagi spirt miqdoridan qat'i nazar, bar-chasining ziyoni bir xildir. Alkogolning ta'sir doirasi inobatga olinib, bitim tuzish paytida shaxsning iroda holatida buzilish bo'lganligi aniqlanadi.

Alkogolning miyaga ta'sirini zamonaviy texnologiyalar bilan aniqlashga oid Germaniya, Italiya va Ispaniya olimlari tomonidan "JAMA Psixiatriya" jurnalida maqola chop etilgan. Unga ko'ra, shaxs alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishni to'xtatganidan so'ng ham uning salbiy ta'siri 6 hafta (bir yarim oy) davomida saqlanib qoladi [21]. Shuning uchun inson spirtli ichimlikni me'yoridan ortiq iste'mol qilsa, iroda holatida buzilish

bo'ladi va o'z xatti-harakatlarini boshqara olmaydi.

Giyohvand vositalari va psixotrop moddalar ham inson ongiga ta'sir etib, harakatlarni izdan chiqaradi. Tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan tabiiy va sintetik moddalar, preparat va o'simliklar giyohvandlik va narkotik moddalar hisoblanadi. Giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va ularning analoglarini tayyorlash uchun qo'llanadigan moddalar prekursorlar bo'lsa, kimyoviy xossalari va tuzilishiga binoan narkotik moddalarga o'xshash, inson ruhiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy va sintetik moddalar giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari hisoblanadi. Ushbu vositalarga huquqiy ta'rif O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonunida aks etirilgan va davlatimizda nazoratga olinadigan alohida ro'yxatga kiritilgan.

Ma'lumot o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, 2018-yilda muomalada bo'lishi taqiqlangan giyohvandlik vositalari 265 tani, muomalada bo'lishi cheklanganlar 53 tani, muomalada bo'lishi cheklangan psixotrop moddalar 85 tani, prekursorlar esa 29 ta tashkil etgan [22].

Bu borada "yoshlar orasida alkogol mahsulotlari va giyohvand vositalarni iste'mol qilish epidemiyaga aylandi, ayniqsa, XXI asr boshidan buyon AQSh, Yaponiya, Avstraliya, Janubi-Sharqiy Osiyo, Sharqiy Yevropa va Janubiy Afrika mamlakatlarida bunga qarshi jiddiy kurash ketmoqda" [23, 142]. Shaxslar me'yoridan ortiq miqdorda spirtli ichimliklar va zaharli moddalarni iste'mol qilishlari oqibatida aql-u ongning ishlash mexanizmi zaiflashadi [24, 752]. Shu bilan bir qatorda, ba'zi holatlarda narkotik moddalar shaxslarni na-faqat idora qila olmaslik, balki harakatlarni tushunmaslik holatiga olib keladi va ushbu holat patologik mastlik deyiladi [25, 25]. Ushbu fikrlar E.S. Shamsiyev, M.X. Rustambayev [26, 46] va D.M. Sabirov [27, 297] tomonidan

ham ta'kidlab o'tilgan. Buning natijasida esa shaxslarning iroda holatida buzilish ro'y beradi va muomala layoqatida nuqson paydo bo'ladi.

Bugungi "zamonaviy" yoshlar orasida keng tarqalgan chilim va elektron sigaretlar ham iroda holatining buzilishiga sabab bo'lishi mumkinmi?

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar orasida ham, voyaga yetganlar orasida ham odatiy tamaki o'rnini bosuvchi vositalar keng tarqalib bormoqda. Buning oldini olish va oqibatda kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasida 2018-yil 2-iyulda "Jamoa joylarida chilim va elektron sigaretlar chekishni cheklash to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, tamaki chekish yoki tarkibida tamaki bo'lmagan chekiladigan aralashmani iste'mol qilish uchun mo'ljallangan asbob chilim hisoblanadi. Unda tutun yoki bug' chilim suvdoni orqali inson organizmiga o'tadi. Elektron sigaret nafas olib yutish uchun qo'llanadigan, tutun paydo qiladigan elektron moslama bo'lib, nikotin yoxud nikotinsiz mahsulotni yetkazish vositasi sifatida qo'llanadi.

Chilim – tamaki mahsulotlari ichida sog'liq uchun eng zararlisi. AQShning Virjiniya hamdo'stligi universiteti hamda Bayrut universiteti xodimlari chilim chekishning zararli ta'siriga oydinlik kiritish maqsadida katta yoshli o'ttiz bir nafar ko'ngillilar o'rtasida tajriba o'tkazdi. Tajriba chilim chekkanda odam qonidagi is gazi miqdori uch baravar oshishi va tamakidan kam bo'lmagan miqdorda nikotin yutishini isbotladi [28]. Shuningdek, chilimdan chiqadigan bug' tarkibida uglerod monoksidi bo'lib, u ichaklarni kengaytirib odamni sarxush qiladi, yurak urushini tezlashtiradi, me'yoridan ko'p miqdorda ajralganda esa markaziy asab tizimi va bosh miya faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, inson o'limiga ham sabab bo'lishi mumkin. Chilim odatda tutun tortishga mo'ljallangan naychadan iborat bo'ladi. Chilim tamakisi yopishqoq

massa ko'rinishida bo'lib, unga meva, asal yoki qiyomga o'xshash xushta'm moddalar qo'shiladi. Sovitish vositasi sifatida chilim choynagiga odatda suv, ba'zan spirtli ichimlik solinadi.

Yoshlar orasida keng tarqalayotgan elektron sigaret va veyplarni (ingliz tilidan olingan "vape") zararsiz deb reklama qilishayotgan bo'lsa-da, ularning tarkibida oddiy tamakilarning asosini tashkil etuvchi nikotin moddasi mavjud. Elektron sigaret va veyplar ichidagi suyuqlikning tarkibi quyidagi elementlardan tashkil topgan: propilenglikol, glitserin, nikotin, aromatizator [29]. Ushbu vositalar nafaqat inson sog'lig'iga, balki jamiyatdagi axloq qoidalariga ham zarar yetkazadi. Aynan shu sababdan ham elektron sigaret, veyplar bilan bog'liq barcha munosabatlar ba'zi davlatlarda taqiqlangan. Jumladan, Argentina, Braziliya, Kolumbiya, Meksika, Panama va Urugvayda tarkibida nikotin bor yoki yo'qligidan qat'i nazar, elektron sigaretlarning har qanday turini sotish, import va reklama qilish taqiqlanadi. Belgiya, Kanada, Daniya, Niderlandiya, Norvegiya, Isroil davlatlarida ham e-sigaretlar man etilgan. Yaponiyada esa e-sigaretlar meditsina tovarlari hisoblanadi va ularni dorixonalardan retseptsiz sotib olish mumkin emas [30]. Lekin shunga qaramay, chilim va elektron sigaret tarkibidagi moddalar inson ongini boshqara olmaydigan darajaga olib kelmaydi, ammo organizmni zaharlaydi. Shuningdek, bir holatni yodimizdan chiqarmasligimiz zarur: chilimga narkotik vosita va preparatlarni aralashtirib chekilsa, shaxsning iroda holati buzilish ehtimoli yuqori.

Xulosalar

Demak, jismoniy shaxslar muomala layoqatidagi nuqsonlar (patologik affekt, spirtli ichimlik, giyohvand vositalari yoki boshqa psixotrop moddalarni me'yoridan ortiq iste'mol qilish) paydo bo'lishi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan holatga tushadi. Bunda shaxsning aqli o'zida

bo'lganligini tekshirish murakkab protsesslardan biri hisoblanadi. Sababi ko'p hollarda bitim tuzilganidan so'ng ancha vaqt o'tib taraflardan biri yoki manfaatdor shaxslar ushbu bitimni muomala layoqatida nuqsoni bor holatda rasmiylashtirilganligini ro'kach qilib, haqiqiy emas deb topishni talab qilishadi. Shaxsning bir necha yil oldingi intellektual va iroda holatini aniqlash esa juda murakkabdir. Shuning uchun AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya davlatlarida bitim tuzish jarayonidagi shaxsning muomala layoqatini yaxshilab tekshirish uchun psixologik testlardan foydalaniladi [31]. Ularga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

- bilish testi (cognitive test);
- affektiv test (affective test);
- motivatsion test (motivational test).

Masalan, bilish testi (cognitive test) shaxs umumiy intellektini aniqlash uchun yaratilgan psixometrik testlar oilasi hisoblanadi. Bunda fuqaroning aqliy qobiliyati qay darajada rivojlanganligi aniqlanadi. Ushbu testlar odatda ko'p tanlovli formatda tuziladi. Kognitiv testlar esa og'zaki, raqamli, mavhum va mantiqiy testlardan iborat. Ularning murakkabligi va qiyinchilik darajasi ushbu toifadagi turli testlar orasida sezilarli darajada farq qilishi mumkin [32, 242]. Motivatsion testlar esa, o'z navbatida, amalga oshirilayotgan munosabatdan maqsad nima va buning uchun shaxsni nima ruhlantirganligini aniqlash uchun o'tkaziladi. Ushbu amaliyotning qonunchiligimizda qo'llanishi shaxsda muomala layoqatida nuqson bor yoki yo'qligini aniqlashda va keyinchalik kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olishda katta yordam beradi. Yuqoridagi test rejimidan notariat tizimida foydalanilsa ham maqsadga muvofiq bo'lar edi. Negaki keksayganligi tufayli ruhiy holatida o'zgarishi bo'lgan shaxslarning ojiz ahvolda ekanligidan foydalanib, ularning mol-mulklarini o'zlashtirish maqsadida vasiyatnoma yoki hadya bitimlari rasmiylashtirilayotgan holat-

lar ham kundan kunga ortib bormoqda. Doiniy qarovchilari bo'lmagan, yordamga muhtoj muomala layoqatida nuqsoni bor, shaxslar istiqomat qiladigan mahallalarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish lozim. Shuningdek, notariuslar tomonidan umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berish shartnomasi haqida hadya shartnomasini rasmiylashtirayotgan taraflarga ham ma'lumot berib o'tilishi kerak. Aholining ko'pchiligi bunday shartnoma borligi haqida tasavvurga ega bo'lmagani holda ba'zi notariuslar ushbu shartnomani rasmiylashtirishdan ham bosh tortishmoqda. Natijada keksalar, ayniqsa, muomala layoqatida nuqsoni bor shaxslar hadya shartnomasini rasmiylashtirish orqali o'z mol-mulklaridan ayrilib, va'da qilingan qarov va g'amxo'rlik-siz qolishmoqda. Shuning uchun notariuslar shaxslarning intellektual va iroda holatida o'zgarish bor yoki yo'qligini aniqlashlari uchun testdan foydalanishlari va hadya shartnomasini rasmiylashtirish uchun kelgan fuqarolarga shartnomaning mazmun-mohiyati va ushbu shartnomani tuzishdan asl maqsadi nima ekanligini aniqlashlari va shartnomalarning boshqa turlari haqida tavsiya berishlarini shart qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bundan tashqari, muomala layoqatidagi nuqsonni aniqlashdagi dolzarb muammolardan biri vafot etgan shaxsning iroda va intellektual holatida buzilishi bo'lgan yoki bo'lmaganligini aniqlashdir. Sababi sud amaliyotida yozib qoldirilgan vasiyatnomani haqiqiy emas deb topish haqidagi da'vo arizasi bilan murojaat etayotgan manfaatdor shaxslarning soni yuqoriligidadir. Bunday murojaatlarda vasiyatnomani haqiqiy emas deb topish asosi sifatida – bitim tuzish jarayonida fuqaro o'z harakatlarining ahamiyatini tushunmagan yoki ularni boshqara olmaganligi ko'rsatiladi. Bitim tuzish protsessida marhumning muomala layoqatida nuqson bo'lgan yoki bo'lmaganligini aniqlash uchun ekspertiza tayinlanadi. Ushbu jarayonda ekspertlar vafot

etgan shaxsning kasallik tarixini o'rganadi, yaqinlari bilan shaxs o'limidan avvalgi holati yuzasidan savol-javob o'tkazadi. Shuningdek, mamlakatimizda fuqarolarga shifokorlar tomonidan amalga oshiriladigan "patronaj xizmati" ham mavjud. Bunda oilaviy poliklinikada faoliyat olib borayotgan va har bir hududga birlashtirilgan umumiy amaliyot shifokorlariga o'sha hududdagi aholining salomatligini nazorat qilib, sog'lig'idagi o'zgarishlarni qayd etib borish vazifasi yuklatiladi. Aynan ular tomonidan olib borilgan kuzatishlar ham ekspertlar tomonidan chiqariladigan

xulosaga asos bo'lib xizmat qilishi lozim. Lekin odatda ularning ushbu kuzatuvlarida xulosa berilayotgan chetda qolib ketmoqda va bunga turli holatlar (shifokorning o'z vazifasini bajarmaganligi, ekspertlar tomonidan umumiy amaliyot shifokorining qaydlari o'rganilmaganligi va boshqalar) sabab bo'lmoqda. Fikrimizcha, ushbu amaliyotni keng targ'ib qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Sababi shunday choralar bilangina vafot etgan shaxsning muomala layoqatida nuqson bo'lgan yoki bo'lmaganligi borasidagi turli shubhalarga nuqta qo'yiladi.

REFERENCES

1. Neznanov N.G. Psixiatriya [Psychiatry]. Moscow, Meditsina Publ., 2021, p. 54.
2. Boyko I.B. Psikhicheskoye rasstroystvo: mediko-pravovoy aspect [Mental disorder: medical and legal aspect]. *Russian Medical and Biological Bulletin Named after Academician I.P. Pavlov*, 2012, no. 3.
3. Belokobyl'skiy N.N., Komissarova E.J. Psikhicheskoye rasstroystvo kak ugolovno-pravovaya kategoriya [Mental disorder as a criminal category]. 50 years of the university: Scientific results and prospects. Proceedings of the scientific conference dedicated to the 50th anniversary of the Ryazan State Medical University named after Academician I.P. Pavlov. Ryazan, RyazSMU, 2000, part I, p. 157.
4. Sitkovskiy D.V. Prestupnost' lits s psihicheskimi rasstroystvami (po materialam Respubliki Dagestan) [Crime of persons with mental disorders (according to the materials of the Republic of Dagestan)]. Abstract of PhD thesis. Mahachkala, 2006, 14 p.
5. Walvisch J. Defining "mental disorder" in legal contexts. *International Journal of Law and Psychiatry*, 2017, May, p. 52. DOI: 10.1016/j.ijlp.2017.04.003/
6. Wakefield J.C. The concept of mental disorder: Diagnostic implications of the harmful dysfunction analysis. *World Psychiatry*, 2007, no. 6, pp. 149–156.
7. Varga S. Defining mental disorder: Exploring the "natural function" approach. *Philosophy, Ethics, and Humanities in Medicine*, 2011, no. 6, pp. 1–10.
8. Stein D.J., Phillips K.A., Bolton D., Fulton K.W.M., Sadler J.Z., Kendler K.S. What is a mental/psychiatric disorder? From DSM-IV to DSM-V. *Psychological Medicine*, 2010, no. 40, pp. 1759–1765.
9. Martin C., Preedy V., Rajendram R. Factors Affecting Neurological Aging. 1st ed. Genetics, Neurology, Behavior, and Diet. Imprint. Academic Press, 2021, 686 p.
10. Spitzer R.L., Williams J.B.W. The definition and diagnosis of mental disorder. Ed. W.R. Gove. Deviance and mental illness, Beverly Hills, California, Sage Publications, 1982, pp. 15–31.
11. Brian L.Ott. Affect. Oxford Research Encyclopedia of Communication, 2017, January. DOI: 10.1093/acrefore/9780190228613.013.56/
12. Morozova M.V., Savina O.F., Tkachenko A.A. Problemy differentsiatsii affektov u lits s psihicheskimi rasstroystvami i vremennymi bolezennymi sostoyaniyami [The problem of differentiation of affects in persons with mental disorders and temporary painful conditions]. *Clinical Features of Mental Illness*, 2013, no. 5.
13. Damasio A. Looking for Spinoza: Joy, sorrow, and the feeling brain. London, William Heinemann, 2003.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 2-son

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 26.06.2023-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 17,7 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 36.
TDYU tipografiyasida chop etildi.